



UDK: 141.7:321.01:35.08:316.47

Ulug'bek O'RINBOYEV,
Guliston davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti
E-mail: orinboyevu1@gmail.com, ORCID: 0000-0002-5015-0731

JDPU dotsenti, PhD J.Suvonqulov taqrizi asosida

THE ROLE OF THE E-GOVERNMENT PORTAL IN STRENGTHENING THE BALANCE OF TRUST BETWEEN THE STATE AND SOCIETY

Annotation

The article discusses the role of the digital government portal in strengthening the trust balance between the state and society. Furthermore, it highlights that the digital government portal is a result of governance reforms in the context of the New Uzbekistan. The article also analyzes the origins, development, and implementation of digital government in foreign countries, examining the experiences of other nations. The advantages of digital government in reinforcing social trust balance, as well as the challenges encountered in this area, are thoroughly explored. Relevant normative-legal documents and literature were comparatively analyzed and utilized in studying the problem. In addition, recommendations and proposals aimed at strengthening the trust balance between the state and society have been developed.

Keywords: state and society, electronic government, trust and trust balance, public administration, openness and transparency, application, proposal, complaint, social contract, cooperation, social equality, justice, portal, personal cabinet, One ID system.

ЗНАЧЕНИЕ ПОРТАЛА ЭЛЕКТРОННОГО ПРАВИТЕЛЬСТВА В УКРЕПЛЕНИИ БАЛАНСА ДОВЕРИЯ МЕЖДУ ГОСУДАРСТВОМ И ОБЩЕСТВОМ

Аннотация

В данной статье рассматривается значения портала электронного правительства в укреплении баланса доверия между государством и обществом. Кроме того подчеркивается, что портал электронного управления в рамках Нового Узбекистана. В статье также анализируется происхождение, развитие и внедрение электронного правительства в зарубежных странах, изучается международный опыт. Преимущества электронного правительства в укреплении социального баланса доверия а также возникающие в этой области проблемы рассматриваются всесторонне. Были проведены сравнительный анализ и использование нормативно-правовых документов и литературы, относящихся к данной сфере, для изучения проблемы. Кроме того, разработаны предложения и рекомендации, направленные на укрепление баланса доверия между государством и обществом.

Ключевые слова: государство и общество, электронное правительство, доверие и баланс доверия, государственное управление, открытость и прозрачность, заявление, справедливость, портал, личный кабинет, система One ID.

DAVLAT VA JAMIYAT O'RTASIDAGI ISHONCH MUVOZANATINI MUSTAHKAMLASHDA RAQAMLI HUKUMAT PORTALINING AHAMIYATI.

Annotatsiya

Ushbu maqola davlat va jamiyat o'rtasida ishonch muvozanatini mustahkamlashda raqamli hukumat portalining ahamiyati haqida so'z boradi. Undan tashqari raqamli hukumat portali Yangi O'zbekiston davlat boshqaruvidagi islohotlar natijasi ekanligi alohida qayd etilgan. Shuningdek maqolada raqamli hukumatning kelib chiqish tarixi, rivojlanishi va xorij mamlakatlarida qachondan boshlab joriy qilinganligi tahlil qilingan. Xorijiy mamlakatlar tajribasi o'rganilgan. Ijtimoiy ishonch muvozanatini mustahkamlashda raqamli hukumatning afzalliklari va bu borada yuzaga kelayotgan muammolar atroflicha o'rganilgan. Sohaga talluqli normativ-huquqiy hujjatlar va adabiyotlar qiyosiy tahlil qilinib muammoni o'rganishda foydalanilgan. Qolaversa davlat va jamiyat o'rtasidagi ishonch muvozanatini mustahkamlashga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: davlat va jamiyat, elektron hukumat, ishonch va ishonch muvozanati, davlat boshqaruvi, ochiqlik va shaffoflik, ariza, taklif, shikoyat, ijtimoiy shartnoma, hamkorlik, ijtimoiy tenglik, adolat, portal, shaxsiy kabinet, One ID tizimi.

Kirish. XXI-asr axborot va raqamli texnologiyalar jadal rivojlangan asr sifatida tarix zarvaraqalaridan joy olib bo'ldi. Insoniyatning tarixiy va falsafiy tafakkuri taraqqiyoti bosqichlarida davlat jamiyat o'rtasidagi munosabatlar bir nechta ko'rinishlarda namoyon bo'lgan. Har qaysi davr o'zida muayyan bir ijtimoiy-siyosiy, falsafiy yoki diniy talimotlar asosida davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni sayqallab borgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Globallashuv davrida esa axborot va raqamli texnologiyalar davlat boshqaruvida muhim ro'l o'ynamoqda. Global jarayonlar nafaqat kishilar o'rtasidagi ijtimoiy-maishiy munosabatlarga balki davlat boshqaruvi jarayonlariga ham o'z tasirini o'tkazmoqda. Bugun kibermakon, kiberjinoiyat, raqamli imzo, raqamli iz, raqamli hukumat hatto raqamli murojaat ham borgan sari oddiy hol bo'lib bormoqda. Bu mamalakatimizdagi islohotlar natijasida yuzaga kelayotgan, fuqarolarni davlat bilan yana ham yaqinlashtiradigan, ularning og'irini yengil qiladigan ijobiy o'zgarishlar xosilasidir. Albatta bularning barchasi o'z holicha bo'lgani yo'q. 2015-yil 9-dekabrda O'zbekiston

Respublikasining "Elektron hukumat to'g'risida"gi 395-son Qonuni qabul qilindi. Ushbu qonun bilan elektron hukumat portalidan foydalanish qoidalari, portalning asosiy vazifalari uning asosiy tushuncha va prinsiplari tasdiqlandi. Qonunning qabul qilinishi mamlakat fuqarolariga hukumatga yana bir qadam yaqinlashishi uchun huquqiy asos bo'lib xizmat qildi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. M.S.Yunusova o'zining "Elektron hukumat va davlat boshqaruvi raqamlashtirish. Davlat boshqaruvi yo'nalishi talabalari uchun o'quv qo'llanma" sida elektron hukumatga quyidagicha ta'rif beradi. "Elektron hukumat (e-Government) – bu davlat organlari faoliyatini raqamlashtirish va internet, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari AKT orqali aholi, bizness va davlat organlari o'rtasida samarali, shaffof va tezkor aloqani ta'minlash tizimidir"[1]. UNESCO ta'rifiga ko'ra, elektron hukumat bu – aholiga sifatli davlat xizmatlarini ko'rsatish, axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalangan holda davlat boshqaruvi mexanizmlarini takomillashtirish, davlat va jamiyat o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlash deya ta'riflangan.

Rossiyalik sotsiolog K.D.Vladislavovich o'zining ilmiy ishlarida elektron hukumatning davlat va jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda qanday imkoniyatlarga ega ekaniga urg'u beradi. Xususan u fuqarolarning hokimiyat bilan bevosita va ochiq muloqotini yo'lga qo'yish masalasida internet muhim o'rin tutishini aytadi. Bu yo'nalishda katta yutuqlarga Amerika Qo'shma Shtatlari erishgan bo'lib, u yerda 1990-yillarning boshidan boshlab elektron hukumat dasturi faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Mazkur dastur hukumat faoliyati samaradorligini oshirishga xizmat qiladi, xususan, to'planayotgan ma'lumotlarning aniqligi, to'liqligi, tezkorligi va ishonchligini ta'minlash, byurokratik to'siqlarni kamaytirish orqali natijadorlikni kuchaytiradi. Rossiyada esa 2001-yilda "Elektron Rossiya" dasturi qabul qilinganiga qaramay, hozirgi kunga qadar uning samarali faoliyatiga oid muvaffaqiyatli misollar unchalik ko'p emas[2]. Ilmiy adabiyotlarda "elektron boshqaruv" tushunchasini aniqlashga nisbatan boshqa yondashuvlar ham mavjud. Xususan Ovchinnikov V.A, Antonov Ya.V o'zlarining "Правовая структура электронного голосования в системе электронной демократии" kitobida bu tushunchaga quyidagicha ta'rif berishadi: "elektron boshqaruv – bu davlat hokimiyatining turli darajalarida, davlat sektorida hamda undan tashqarida boshqaruv samaradorligini oshirish maqsadida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish sifatida talqin etiladi"[3].

Tadqiqot metodologiyasi. "Hozirgi vaqtda davlat boshqaruvida fuqarolarning ishtirokini ta'minlash borasida yangicha tendensiya shakllanib bormoqda. Elektron hukumat jahon tajribasida quyidagi 3 ta asosiy qism orqali tushuniladi va farqlanadi. Xususan: hukumat va hukumat, hukumat va biznes, hukumat va fuqaro"[4].

Tahlil va natijalar. Yuqorida ta'kidlangidek elektron hukumatni takomillashtirish davlat boshqaruvida bir qancha optimallashtiruvlarni amalga oshiribgina qolmay fuqarolar uchun ham qulayliklar yaratadi. Masofadan turib davlat xizmatlaridan foydalanish, davlat va jamiyat hayotiga daxldor bo'lgan masalalarda bevosita yoki bilvosita ishtirok etish, mahalliy kengashlar sessiyalarini kuzatib borish imkoniga ega bo'ladi. Shu bilan birga elektron hukumat faoliyati ham havf hatarlardan holi emas deb aytoilmaymiz. Bu portaldagi barcha hukumat tashkilotlarining ma'lumotlari qolaversa fuqarolarning shaxsiy ma'lumotlari bor. Bu davlatga fuqarolarning shaxsga doir ma'lumotlarini saqlash va qayta ishlashda katta mas'uliyat yuklaydi. Huddi shunday har bir fuqaro ham o'zining shaxsiy ma'lumotlarini One ID tizimidan shaxsan o'zi yangilashi va sir saqlashi kerak bo'ladi.

Elektron hukumatning butun dunyoda ommalashgan va tan olingan 4 ta modeli bugungi kungacha rivojlanib kelmoqda [5]. Jumladan:

Kontinental Yevropa modeli. Mazkur modelning o'ziga xosligi shundaki, unda davlatdan yuqori turuvchi institutlar mavjud. (Masalan Yevropa komissiyasi, Yevroparlament, Yevropolice va Yevrope markaziy banki shular jumlasidan.) Mazkur model asosan istemolchi aholi ehtiyojidan kelib chiqqan holda ishlab chiqilgan.

Ingliz-Amerika modeli. Bu model AQSH, Kanada va Buyuk Britaniyada ommalashgan. Birgina AQSHni o'zida "axborot lokomotivi" yaratilganki, aholi davlat boshqaruvi to'g'risidagi ma'lumotlarni erkin olish imkoniyatiga ega. Buyuk Britaniyada esa "Elektron fuqaro, electron business, electron hukumat" loyihasi asosida ishga tushirilgan. Bu modelning maqsadi davlat xizmatchisi faoliyatidagi yuklamani kamaytirishdan iborat.

Osiyo modeli. Ushbu model o'zgacha boshqaruv uslubiga ega bo'lib, u ko'proq aholining axborotga bo'lgan talabini madaniyat va ta'lim sohasida axborot texnologiyalaridan keng foydalanish orqali qondirishni taklif etadi. Osiyo modelida xalq hokimiyatning birdan bir manbai ekanligiga urg'u beriladi.

Rossiya modeli. Bu modelda davlat boshqaruvi va xizmatlari haqida ma'lumot olish uchun 9 ta yo'nalish ishlab chiqilgan. Bundan maqsad markaziy va mahalliy ijro hokimiyati faoliyatini yaxshilash iqtisodiyotda samaradorlikni oshirish.

"O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son farmoni bilan tasdiqlangan iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha va davlat boshqaruvi tizimining jadal raqamli rivojlanishini ta'minlash, shu jumladan elektron davlat xizmatlarini ko'rsatish mexanizmlarini yanada takomillashtirish maqsadida "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi ishlab chiqilgan. Strategiya O'zbekiston Respublikasining raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo'nalishlari hamda o'rta va uzoq muddatli istiqbolli vazifalarni belgilaydi, shuningdek, BMning Barqaror rivojlanish maqsadlari va Elektron hukumatni rivojlantirish reytingida belgilangan ustuvor vazifalardan kelib chiqib, raqamli texnologiyalarni yanada keng joriy etish uchun asos bo'lib xizmat qiladi"[6].

Aynan ushbu strategiyada jamiyat hayotining barcha sohalariga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, fan, ta'lim, madaniyat, sport, tibbiyot, transport, aloqa va kommunikatsiya, qurilish, energetika sektori va boshqa sohalarini to'liq raqamlashtirish. Fuqarolarning ushbu raqamli platformalarga shaxsiy kabinet orqali kirishi ularning vaqtini ham naqtini tejaydi, eng muhim siyosiy institutlarga bo'lgan ishonch ortadi, byurokratik to'siqlarni maksimal darajada yo'q qiladi. Hukumat bu boradagi islohotlardan hech qachon ortga chekinmasligi aksincha sohani muttasil takomillashtirib borishi zarur. Bu davlat va jamiyat o'rtasidagi ishonch muvozanatini mustahkamlash uchun ko'prik vazifasini ham bajaradi. Elektron hukumat portalining faoliyat ko'rsatishi davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarda elektron demokratiyaning ham rivojlanishiga zamin yaratmoqda.

Elektron demokratiya – bu axborot kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan holda elektron boshqaruv tamoyillariga tayangan barcha demokratik jarayonlarning kompleks ifodasidir[7].

Demokratiyaning asosiy maqsadi ko'pchilik hokimiyatini ta'minlashdan iborat. Elektron demokratiya aynan ushbu tamoyilni kengaytirish va yanada aniqlashtirishga qaratilgan. Shu bilan birga, har bir alohida davlatda elektron demokratiya konsepsiyasini ushbu tushunchaga qanday mazmun yuklanishiga qarab o'ziga xos tarzda amalga oshiriladi[8].

Xulosa va takliflar. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki elektron hukumat portali faoliyatini yo'lga qo'yish bugungi zamon talabi. Yangi O'zbekistonni ijtimoiy, dunyoviy, huquqiy, demokratik va xalqchil davlat qilmog'chi bo'lsak biz bu bosqichdan albatta o'tishimiz shart va o'tyapmiz xam. Davlat va jamiyat o'rtasidagi mustahkam ishonch muvozanatini saqlab qolish siyosiy institutlar faoliyatidagi ochiqlik hamda byurokratiyani yo'qotish uchun ham raqamli davlat xizmatlari, hukumat portallari bizga kerak. Shu o'rinda sohani takomillashtirish, davlat va jamiyat o'rtasidagi ishonch muvozanatini mustahkamlash uchun quyidagilarni taklif etamiz:

Birinchidan – davlat xizmatlarini mahalla darajasida ko'rsatish uchun e-mahalla online platformasini ishga tushirish. Bu fuqarolarga One ID shaxsiy kabinetini orqali davlat xizmatlaridan mahalla darajasida foydalanish imkonini beradi. Undan tashqari bu tizim Respublika bo'ylab davlat xizmatlari markazlari faoliyatidagi yuklamani kamaytiradi, har bir mahalla bo'yicha aniq monitoring qilish imkoni paydo bo'ladi.

Ikkinchidan – maktablarda informatika fani darsliklari rejasiga shaxsga doir ma'lumotlarni boshqarish bo'yicha mavzularni kiritish kerak. Chunki mediasavodxonlik darslari faqat OTMlarda o'tiladi, maktab bitiruvchilarining barchasi ham oliy ta'limga o'qishga kirolmaydi. Buning natijasida shaxsiy ma'lumotlar havfsizligi sezilarli darajada oshadi yoshlarda shaxsga doir ma'lumotlar haqida bilimlar yanada oydinlashadi.

Uchinchidan – har bir mahalla binosiga yoki ushbu vazifani vaqtincha bajarib turgan binoga, fuqarolar elektron hukumat portaliga kira olishi uchun miniinfokiosk yoki elektron terminal (interaktiv qurilma) o'rnatish kerak. Buning natijasida tuman markazi olish bo'lgan mahalla fuqarolari o'z hududidan chiqmasdan hukumat portallaridan va davlat xizmatlaridan foydalana oladilar. Bu ijtimoiy muammolarning tezkorlik bilan

yechilishiga davlat va jamiyat o'rtasidagi ishonch muvozanatining mustahkamlanishiga yordam beradi. Chunki muammoni o'rganish davomida joylarda fuqarolar bilan sayyor qabullar va

uchrashuvlarda suhbatlashganimizda aynan shu masalalar ko'proq diqqat markazida bo'lgani uchun ushbu maqolada o'zimizning takliflarimizni bayon qildik.

ADABIYOTLAR

1. Yunusova M.S., Elektron hukumat va davlat boshqaruvini raqamlashtirish. Davlat boshqaruvi yo'nalishi talabalari uchun o'quv qo'llanma. – T.: Dimal nashriyoti. 2025-yil. – 88 b.
2. Князев Д. В. Социально-упрвленческие механизмы формирования доверия населения к институам государственной власти: Автореф. дис. ...канд. социол. наук. – Москва, 2009. - 27 с.
3. Овчинников В.А., Антонов Я.В. Правовая структура электронного голосования в системе электронной демократии // Российская юстиция. 2016. № 5. – 12 с.
4. Kudryavsev I. O'zbekistonda elektron hukumat rivojlanishining nazariy-huquqiy asoslari // Huquq va Burch – Toshkent, 2024. -№ 7. – В. 3-4.
5. Исхакова Л.Ф. Трансформация государства и права в цифровую эпоху (публично-правовой аспект). – Ташкент: Институт государства и права Академик наук Республики Узбекистан, 2021. С 65.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi 05.10.2020-yildagi PF-6079-son.// <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>
7. Антонов Я.В. Электронное голосование и электронная демократия: правовые основы развития и взаимодействия. // 2018. С. 7. URL: <http://www.st-petersburg.izbirkom.ru/etc/5a.doc>.
8. Трансформация права в цифровую эпоху: монография / под ред. А.А. Васильева и др. – Барнаул, 2020. – С. 333.